



**So'zlarni to'g'ri joylashtirib, maqolni o'qing.  
do'stligi xalq – boyligi yurt.**



**Ezop** – yunon masalchisi. Rivoyatlarga qaraganda, Ezop frigiyalik qul bo'lib, so'ng ozod qilingan. Lidiya shohi Krez saroyida xizmatda bo'lgan. Milodiy X-XV asrlardagi qo'lyozmalarda 300 dan ortiq masallari saqlanib qolgan.



## Tovuq bilan Tulki (Masal)

Baland daraxt shoxiga qo'nib, qaqag'layotgan tovuqning tovushi butun o'rmonga taralib, ochlikdan sillasi qurigan Tulkining e'tiborini tortibdi. Tovuqning baland shoxda turganini ko'rgan Tulki uni hiyla bilan pastga tushirib, yemoqchi bo'libdi.

– Kechirasani, qadrdonim Tovuq, – deb gap boshlabdi u. – Sen yirtqichlar bilan qushlar, umuman, o'rmonimizdagi barcha jonzotlar o'ttasida tuzilgan tinchlik bitimi haqida hali eshitmadingmi? Bundan keyin biz bir-birimizni ovlamaymiz, aldamaymiz va o'g'irlamaymiz, balki tinchlikda, hamjihatlikda yashaymiz. Pastga tush, bu haqida yaxshilab gaplashib olamiz.



Tulkining mug'ambirligini yaxshi bilgan Tovuq hech narsa demay, xuddi bir narsaga tikilgandek yo'lga qarab turaveribdi.

– Nimaga buncha tikilib qolding? – deb so'rabdi Tulki.

– Men bir to'da itlarni ko'ryapman, – debdi Tovuq. – Adashmasam, ular biz tomonga kelishyapti, janob Tulki.

– Shunaqami, unda men ketishim kerak, – debdi Tulki.

– Iltimos, janob Tulki, ketmay turing, – debdi Tovuq. – Men endi tushmoqchi bo'lib turuvdim. Keling, itlarni kutib turamiz, ular kelgandan so'ng tinchlik bitimini birga muhokama qilamiz.



– Yo'q, yo'q, – debdi Tulki. – Men ketishim kerak, itlar hali tinchlik bitimi haqida eshitmagan bo'lishlari mumkin.


**Qissadan hissa:** *To'satdan taklif qilingan do'stlikdan ehtiyyot bo'ling.*

- 
1. Masalni rollarga bo'lib, ifodali o'qing.
  2. Masal qahramonlari tulki va tovuqqa ta'rif bering.
  3. Masaldagi "janob tulki" so'z birikmasini qanday tushunasisiz?
  4. Tulki va tovuqni qanday insonlarga qiyoslash mumkinligi haqida qisqa matn tuzing.





1. Tovuq va tulki qayerda uchrashib qoldilar?
2. Tulki nima sababdan hiyla ishlatmoqchi bo'ldi?
3. Nima deb o'ylaysiz uzoqdan kelayotgan itlar soni qancha edi?
4. Tovuq nima uchun talkining hiylasiga uchmadi?
5. Siz masaldan qanday xulosa chiqardingiz?
6. Nima uchun muallif to'satdan taklif etilgan do'stlikdan ehtiyoj bo'lishga chaqirgan?



**Fikrlar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.**

T/r	Fikr	✓/✗
1	Masal qahramoni tovuq xushmuomala edi	
2	Masalda tovuq ishonuvchan qilib ta'riflangan	
3	Masaldagi tovuqning fe'l-atvori kabi insonlar hayotda yo'q	
4	Tovuq daraxt shoxidan pastga tushmadi	
5	Tovuq uzoqdagi itlarni rostdan ham ko'rdi	